



# FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## FARG'ONA VILOYATIDA QURILISH ISHLARI



2023- yil yanvar-fevral

## 2023- yil yanvar-fevral oylari uchun Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida, Farg'ona viloyatida jami 804,8 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 100,2 %ni tashkil etdi.




### Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu — o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## 2023- yil 1- mart holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda o'sish sur'ati 81,0 % bo'lib (682 birlikga kamaygan).



Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaraganda:

Binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 55,1 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 79,9 foiz bo'lib (403 birlikga kamaygan);

Fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 13,8 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,2 foizga oshgan (20 birlikga ko'paygan);


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 31,1 foiz ulushni va 75,1 foizni tashkil etdi (299 birlikga kamaygan).



**Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan  
shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar  
to'g'risida ma'lumotlar, birlik**

	holatiga:		o'tgan yilga nisbatan, %da
	01.03.2022- y.	01.03.2023- y.	
Farg'ona viloyati	3 587	2905	81,0
Farg'ona sh.	968	773	79,9
Qo'qon sh.	346	248	71,7
Quvasoy sh.	128	125	97,7
Marg'ilon sh.	340	230	67,6
Oltiariq	119	121	101,7
Qo'shtepa	104	83	79,8
Bag'dod	158	124	78,5
Buvayda	137	96	70,1
Beshariq	93	74	79,6
Quva	147	124	84,4
Uchko'prik	199	164	82,4
Rishton	91	80	87,9
So'x	80	70	87,5
Toshloq	135	111	82,2
O'zbekiston	97	98	101,0
Farg'ona	127	123	96,9
Dang'ara	137	103	75,2
Furqat	83	72	86,7
Yozyovon	98	86	87,8

**2023- yil 1- mart holatiga ko'ra  
Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish  
korxonalarini ulushi, %da**



Joriy yilning yanvar-fevral oylariga, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 108,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 89,4 %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan 1,9 % punktga kamayib, 13,5 %ni tashkil etdi.

## 2023- yil yanvar-fevral oylariga yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



**Maʼlumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʼp ulushi Margʼilon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 63,1 %i yoki 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 65,2 % oʼsish surʼati), Fargʼona shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 21,3 %i yoki oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 413,4 % oʼsish surʼati) va Beshariq tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 5,2 %i yoki oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 195,2 % oʼsish surʼati)ga toʼgʼri keldi.



## Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2023- yilning yanvar-fevral oylariga kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 66,8 %i to'g'ri kelib, 2022- yilning yanvar-fevral oylariga ko'rsatkichiga nisbatan 0,3 foizga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 102,1 %ni tashkil etgan holda 537,5 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

### Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, %da

66,5  
2022- yil  
yanvar-fevral

66,8  
2023- yil  
yanvar-fevral



Ma'lumot uchun: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Farg'ona shahri (181,4 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 33,7 %), Bag'dod tumani (104,4 mlrd. so'm yoki 19,4 %), Qo'shtepa tumani (47,6 mlrd. so'm yoki 8,9 %) va Qo'qon shahri (44,0 mlrd. so'm yoki 8,2 %) to'g'ri keldi.


## Qurilish ishlaringning umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 19,7 %ni tashkil etdi yoki 158,6 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2022- yilning yanvar-fevral oylariga ko'rsatkichiga nisbatan 1,6 foizga ko'paydi va 102,0 %ni tashkil etdi.



### Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 31,3 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 773,5 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 3,9 % va 96,1 %ni tashkil etdi.



2023- yil yanvar-fevral oylaridagi  
Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

**Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya,  
kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2023- yil yanvar-fevral oylarida**

Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringning 72,8 %i yoki 586,2 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 85,5 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlardagi ulushi 14,6 %ni tashkil etdi.




Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 136,7 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 23,3 %ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-fevral oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya va qayta qurollantirish (mlrd. so'm)
Farg'ona viloyati	804,8	100,2	586,2
Farg'ona sh.	237,7	123,2	195,9
Qo'qon sh.	55,7	112,3	45,3
Quvasoy sh.	24,2	118,0	19,0
Marg'ilon sh.	122,2	77,7	98,3
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	17,9	94,7	12,3
Qo'shtepa	56,4	110,3	36,3
Bag'dod	109,7	103,9	62,8
Buvayda	16,5	95,6	11,5
Beshariq	17,1	113,3	12,7
Quva	15,9	91,1	11,3
Uchko'prik	17,5	89,5	9,9
Rishton	11,0	100,0	7,3
So'x	8,7	54,8	4,2
Toshloq	26,0	101,8	15,0
O'zbekiston	14,7	92,0	10,6
Farg'ona	5,9	52,1	3,6
Dang'ara	22,1	90,2	11,5
Furqat	16,0	72,7	12,3
Yozyovon	9,6	74,8	6,5

## Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



**Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.**

## Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 13,1 %ni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-fevral oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 4,7 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning yanvar-fevral oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 2,0 % punktga ko'payib, 61,7 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2022- yilning yanvar-fevral oyidagi ko'rsatkichga nisbatan 2,7 % punktga ko'payib, 25,2 %ni tashkil etdi.

### Ulushi, %da




## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 12,6 %ni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 8,0 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 86,4 % (5,8 % punktga kamaydi ) hamda norasmiy sektoring ulushi 1,0 %ni tashkil etdi (2,2 % punktga kamaydi).



### Ulushi, %da




Yirik qurilish tashkilotlari



Norasmiy sektor



2022- yil yanvar-fevral




Kichik korxona va mikrofirmalar



2023- yil yanvar-fevral

## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 11,5 % punktga ko'paydi va 21,8 %ni tashkil etdi. Qolgan 78,2 %i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 11,5 % punktga kamaydi.



2023- yil yanvar-fevral oylaridagi  
Farg'on'a viloyatida qurilish ishlari



**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**  
**Tel.: 73 241-98-42**